

**TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA LOYIHALASHNING O'RNI VA
TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI****Zokirova Nargiza Akbarjonovna***O'qituvchi, Andijon davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya: Ushbu maqola Oliy ta'lim muassasasi talabalariga ta'lim berishning yangicha usullari, jumladan loyihalash metodidan foydalanish orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish xususida bo'lib, unda bu metodning o'rni va eng afzal tomonlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Loyihalash, texnologiya, metod, samaradorlik, ta'lim jarayoni, innovatsion yondashuv, loyihalash bosqichi va uslublari.

Abstract: This article is about increasing the efficiency of the educational process by using new methods of teaching students of higher educational institutions, including the design method, and it shows the role and most advantageous aspects of this method.

Key words: Design, technology, method, efficiency, educational process, innovative approach, design stage and methods.

Аннотация: Данная статья посвящена повышению эффективности образовательного процесса за счет использования новых методов обучения студентов высших учебных заведений, в том числе метода проектирования, и показывает роль и наиболее полезные стороны этого метода.

Ключевые слова: Проектирование, технология, метод, эффективность, образовательный процесс, инновационный подход, этап и методы проектирования.

Bugungi kun zamonaviy ta'limini zamonaviy usul va metodlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bir qarashda oddiydek ko'ringan loyihalash texnologiyasi ham o'quv jarayonida samardorlikni yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Shu o'rinda bu texnologiyaning asl negizi, uni amalga oshirish shakllari, ko'zlanadigan natija va bu metod orqali ta'limga olib kiriladigan unsurlar haqida fikr yuritamiz. Loyihalash (lotincha, projectus – olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz) metodi o'z nomi bilan kelgusidagi ishlarni amalga oshirishda rejalashtirish bo'lib, proyekt ma'lum bir hisob-kitoblarga, chizmalarga va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir.

Loyihalash texnologiyasi ta'limda o'qituvchi va talabani birdek ishlashga, talabada mustaqillikni yanada oshirishga xizmat qilar ekan, bu o'rinda undan kutiladigan natijalar ham yangilik sifatida qaralishga munosib ishlar bo'lishini nazarda tutadi. Loyihalash metodlari orqali o'qitishda quyidagi natijadorliklar hosil bo'ladi:

- O'qituvchining kuzatuvchi va yo'l boshlovchi sifatidagi ishtiroki, talabalarning esa asosiy loyiha mualliflari, loyihani bajaruvchilari bo'lib ishlashlari;
- Har bir talabaning ma'lum dolzarb yoxud kichik muammoni aniqlab, uning uchun bajariladigan ishlar rejasi hamda yechimini topishiga alohida o'qituvchi tomonidan e'tibor berilishi;
- Birgina katta muammoga ham turlicha usullar orqali yondashuvni ta'minlash zahirida mukammal loyiha ishlarini yarata olish tajribalari paydo bo'lishi;
- Fikrlashi, qobiliyati, bilim darajasi bir-biriga yaqin talabalardan kichik guruhlarini tashkil etish va bu asosida lohiyalash jarayonidagina emas, balki boshqa jamoaviy ishlarda ham bir xil tipdagi talaba guruhi bilan ishlashni osonlashtirish.

Hozirgi ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan, jahon pedagogikasining ilg'or metodlaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan bo'lib, loyihalash ta'limning ilg'or usullarini o'zida mujassamlashtirgan. Loyihalash o'quv mashg'uloti jarayonida mavjud tajribani o'zlashtirish va ta'limning barcha bosqichlarida qo'llashdek muhim vazifa turadi. Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axborotini yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash usulidir. Loyihalash texnologiyasi bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o'qitish usulini amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o'qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. O'quv loyihalar usuli ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarga muammoni, faraz, vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi. Loyihalarda o'qitish nafaqat natijalar, balki jarayonini o'zi ham qimmatli. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo'lishi mumkin. Loyihalash ikki usulda - shaxsiy va guruhviy asosda amalga oshiriladi. Har ikki yo'nalishning ijobiy va afzallik xususiyatlari bor.

Loyihalash usuli – ta'lim beruvchining oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida usul va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini belgilash, maqsadni to'g'ri qo'ya bilish, ular asosida alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axborotini o'quvchiga yetkazish uslub, usul va vositasi aniqlash faoliyati hisoblanadi. Texnologik ta'limni loyihalar usuli asosida tashkil etish o'quvchining bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o'qitishni amalga oshirishga imkon yaratadi. Loyihalash usuli boshqa o'qitish usullarini qo'llashga nisbatan olganda, ta'lim oluvchilar ya'ni talabalar yangi mavzuni o'zlashtirish jarayonida uni yuqori darajada rejalashtirishda, tashkillashtirishda, mavjud natijalarni tahlil qilishda va dars bo'yicha berilgan vazifani bajarish vaqtida o'z-o'zini baholashda ham faol ishtirok etadilar. O'quv loyihalar usuli

darsda mavzuni o'zlashtirishdagi aniq vazifalar asosida yechish imkonini bajarishi bilan talabalarni oson tushunishga o'rgatadi. Loyihalash usuli fanlararo, bir fan yoki fan doirasida bo'lishi mumkin. Loyihalash ikki usulda - shaxsiy va guruhliy asosda amalga oshiriladi. Har ikki yo'nalishning o'ziga xos ijobiy va afzallik xususiyatlari bor. Texnologiya darslarida loyihalash metodikasidan foydalanish o'quv jarayonida ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi, Oliy ta'lim muassasasi talabalarini aniq reja asosidagi loyiha ustida ishlashda aniq maqsad uchun mustaqil faoliyat yuritishga yo'naltiradi.

Ta'lim tizimida bunday texnologiya va usullarni joriy etish nafaqat talabalarni mavzuni oson o'zlashtirishga yordam beradi, balki o'qituvchilarning talabalar bilan individual yondashuvini tashkil etishga xizmat qiladi. Endilikda yangi ta'lim standartlari va o'quv darsturlari, darsliklar mazmuni bo'yicha o'quvchilar ko'proq o'z ustida ishlashga, amaliy mashg'ulotlarni auditoriyada va auditoriyadan tashqari ishlarda mustaqil tayyorlashga o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Shu ma'noda texnologiya darslarida talabalarni o'z ustida ishlashga o'rgatish davomida o'zlariga qiziqarli mavzuni tanlab olish va bevosita u bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish uchun kichik tadqiqotlar shaklida yo'naltiriladi. Bu shakldagi kichik tadqiqotlar bevosita talabaga axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanishning zamonaviy metodlarini egallashga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ba'zi bir metodlarini o'zlashtirishga, o'zining tadqiqotchilik o'rnini aniqlashga, amalga oshirayotgan kichik tadqiqotini yana davom ettirishga, vaqt o'tishi bilan tadqiqotchilik ko'nikmasini kompetensiya darajasiga yetkazilishiga imkon beradi. Tadqiqotchilikka yo'naltirish asnosida loyiha ishlari mavzularini oldindan talabalarning shaxsiy qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda kasbga yo'naltirish xususiyatlari asosida tanlashimiz maqsadga muvofiq. Bu borada talabalarning ishini bajara olish ko'nikmalarini rivojlantirib borish va unga mas'uliyatli yondashishni talab qilish zarur. O'qituvchilar talabalarning loyiha ishlarini amalga oshirish bosqichlarini doimiy nazorat qilib borish bilan birga, uni bajarish ko'nikmalarini rivojlanishini kuzatib boradi. Loyihalashtirish faoliyatini bajarish bosqichlari tahlil qilinadi:

- Tayyorlov bosqichi:

- a) loyiha mavzusini tanlanib, uning dolzarbligi, yechilishi kerak bo'lgan muammo shakllantiriladi.
- b) loyiha maqsadi, predmeti, ob'ekti va vazifalari belgilanib olinadi.
- v) loyihalashtirish faoliyati turlari va yechilishi lozim bo'lgan topshiriqlar tayyorlanib, ularni echish usul va vositalari tanlanadi.
- g) loyiha mavzusiga doir adabiyotlar va axborot manbalari bilan tanishiladi.

Tanlangan mavzular natijalariga ko'ra har bir o'quvchi uchun individual reja tuziladi. Mazkur reja asosida o'quvchilar texnologiyadan zarur adabiyotlarni topish, o'rganish va o'qituvchi bilan tahlil qilish, amaliyot ustaxonalaridan foydalanish talablari asosida

loyihada yaratilgan ishlarni yasash, kuzatish va hosil bo'lgan predmet natijalarini yozib borish, loyihalash davomidagi natijalarni daftarga ko'chirish vazifalarini bajarib boradi.

Loyihalash tushunchasini yanada kengroq yoritish uchun biz tikuvchilik sexini loyihalash va unda texnologik oqimni loyihalash haqida so'z yuritamiz. Oqim usuli deganda ishlab chiqarishning uzluksiz va bir me'yorda davom ettirilishi, mehnat qurollarining beto'xtov ishlab turishi, mehnat predmetlarining ishlov berilgach, bir ish o'rnidan ikkinchi ish o'rniga beto'xtov uzatilib turishi, ish operatsiyalarining texnologik izchillikda bajarilishi tushuniladi. Texnologik oqimni loyihalash quyidagi bosqichlarga (etaplarga) bo'linadi:

I - texnologik,

II - oqimni hisoblash,

III - oqimni boshqarishni tashkil etish,

IV - tikuv sexlarini planlashtirish.

Texnologik oqimlarni loyihalash bir-biriga bog'liq bo'lsa ham, ammo bosqichlari alohida bajariladi.



1-rasm. Texnologik oqimni loyihalash bosqichlari.

Tikuv sexini loyihalashni talabalarga oson va qulay o'rgatish uchun bir nechta metodlardan foydalanamiz. Birinchi foydalanishimiz mumkin bo'lgan metod bu Zinama-zina metodidir. Bu metod uzluksiz harakatni talab etganligi uchun bu bizga juda mos keladi. Texnologik jarayonni oqim usulida tashkil qilish bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, jihozlarning beto'xtov ishlab turishi, mehnat predmetlarining bir ish o'rnidan ikkinchi ish o'rniga beto'xtov o'tishi va xodimlarning beto'xtov ishlashi ta'minlanadi. Ikkinchidan, ixtisoslashtirilgan jihozlarni qo'llash va

ulardan foydalanish ko'effitsiyentlarini oshirish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Uchinchidan, ma'lum ish operatsiyalarini bajaruvchi xodimlarning bevosita, bir-biriga bog'liqligi ortadi, ish vaqtida o'zboshimchalik bilan tanaffus qilish va ishga kech qolish hollariga yo'l qo'yilmaydi, mehnat intizomi mustahkamlanadi va ishlab chiqarish madaniyati oshadi. To'rtinchidan, mehnat unumdorligi o'sadi va mahsulot sifati oshadi, ishlab chiqarish sikli qisqaradi. Beshinchidan, ishlab chiqarishning uzluksiz davom etishi asosiy fondlardan yaxshiroq foydalanish, aylanma mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Bu holatda zinama-zina metodi ayni muddaodir. Chunki bu metodda har bir hodisa-harakat ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Ikkinchi qo'llashimiz mumkin bo'lgan metodlardan biri bu Keys-stadi metodidir. Bu metod orqali talabalar jamoaviy va guruhliy holatda izlanishga doir faoliyat orqali xilma-xil loyihalarni ishlab chiqadilar. Loyihalash orqali talabalarda ijodkorlik, ixtirochilik qobiliyatlari shakllana boshlaydi. Har bir loyiha talabaning dunyo qarashi, qiziqishidan kelib chiqib tanlanadi.


Uchinchi foydalanishni tavsiya etadigan metodimiz bu 4K metodi. Ya'ni kolaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash va kommunikativlik. Asosan amaliy darslarda bularga urg'u beriladi. Misol uchun oddiy kiyim ilgichni qayta loyihalash topshirig'i berilgan bo'lsin. Talabalar oldilariga bir qancha savollarni qo'yib olishlari zarur.

1. Nima uchun foydalanaman?
2. Qanday ko'rinishda bo'lishi kerak?
3. O'lchami qanaqa bo'ladi?
4. Qanday foydali xususiyati bor?

Bu savollar talabaning kritik fikrlab kreativ yondashishiga sabab bo'ladi. Guruh asosida bajarilishi esa kommunikativlikni shakllantiradi. Natijaviy loyiha kolaboratsiyani hosil qiladi.

Har bir savolga mos javob beramiz:

1. Tikuv mashinasi uchun ip ilgich sifatida foydalanaman.
2. Qo'shimcha cho'ntakchalarga ega, igna qo'yishga va iplarni joylashtirishga mos bo'lishi kerak
3. Tikuv mashinasi yoniga joylashtirishga qulay katta bo'lmagan holda bo'lishi kerak
4. Foydalanib bo'lgach uni ixcham yig'ilish xususiyati mavjud bo'lib kam joy egallaydi va ko'chirib yurish uchun qulay.



2-rasm. Kiyim ilgichning eng soda loyihasi. 1-ilgich, 2-cho'ntaklar, 3- asos qismi.

Har bir qilamayotgan ish ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi juda muhim. O'quv jarayonini loyihalash orqali samarali qilish esa bu eng asosiy maqsadimizdir. Loyihalash jarayonida biz shuni tushundikki, ta'lim berish samaradorligi oshganligini guvohi bo'ldik. Chunki har bir talaba o'ziga yuklatilgan vazifani bajarar ekan ularda ijodkorlik qobiliyatlari yanada rivojlanib ixtirochilikka sabab bo'ldi. Har bir talaba o'zining yasagan buyum-predmetlari orqali loyihalash texnologik ta'lim talabalari uchun muhim degan xulosa kelib chiqdi.

Ilm-fan sohasidagi yangicha uslublar, yangicha yo'nalishlar zamon talabiga mos va xosligi bilan har bir o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muhim bog'lanishni hosil etayotgani hech kimga sir emas. Yangilanish zamonida o'z ishining ustalariga bo'lgan talab esa kundan-kunga ortib bormoqda. Ta'lim jarayonini sifatli yo'lga qo'yish va samaradorligini ta'minlash masalasi har birimizning yelkamizdagi burch va mas'uliyatdir. Texnologik ta'lim jarayonida loyihalash keng qamrovli bo'lib, bu talabalarning iqtidorini namoyish qilishlari uchun eng katta imkoniyat desak hech ham xat'o bo'lmaydi. Bu orqali uning o'rni nechog'lik ahamiyatli ekanligiga shohid bo'lamiz.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak loyihalashtirish asosida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalariga dars o'tish bu yangi usul yangi zamondir. Har bir talaba loyihalashtirish asosida o'qitilar ekan ular gazlama, materialdan tortib tayyor mahsulot paydo bo'lguniga qadar bo'lgan jarayonni o'z ichiga oluvchi, talabalarni ixtirochilik ruhida tayyorlovchi asosiy vosita desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Hoyotimiz davomida duch kelgan har bir mahsulot foydalanayotgan buyumlarimiz zamirida loyihalash yotishligini bu kurs vakillari juda yaxshi biladilar. Loyihalash ishlab chiqarish sanoati negizi hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi va ishlab chiqarish sohasiga yaqin bo'lgan bunday yo'nalish talabalari uchun loyihalash ishlari alohida ko'nikma va malakani talab etadi. Hozirgi rivojlangan jamiyatimiz har

bir narsa-predmetning sifatiga va samaradorligiga katta ahamiyat berishmoqda. Bu sifat va samaradorlik loyihalashga bevosita bog'liq bo'lgan tizimli o'rganishdir. Ushbu maqola orqali biz loyihalashni muhim ekanligini anglashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.Qayumov, I.Parmonova "Innovatsion ta'lim texnologiyasida loyihalash metodi imkoniyatlari va uni amalga oshirish bosqichlari." 2023
2. G.J.Rajabova "Texnologik jarayonlarni loyihalash" Toshkent 2020.
3. M.Mahmudov "Talim natijasini loyihalash" Pedagogik mahorat. 2002. 1-son
4. Z.T.Nishonova "Oliy maktab psixologiyasi". Toshkent.2003.

